POETIKANING NEYRON TARJIMADAGI DEFORMATSIYA TURLARIGA QIYOSIY-KRITIK TAHLILI

Xolmuhammedova O‘g‘iloy O‘tkirjon qizi
mamirjonova0303@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23163118

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy sun’iy intellekt va neyron tarjima (Neural Machine Translation — NMT) tizimlarining badiiy adabiyot, xususan, poetik matnlarni tarjima qilishdagi imkoniyatlari va yo‘l qo‘yadigan deformatsiya turlari qiyosiy-kritik tahlil qilinadi. Badiiy matnning emotsional-estetik qatlami, metaforik tizimi va ritmik-melodik tuzilishining mashina tarjimasida uchrashi muqarrar bo‘lgan buzilishlar (deformatsiyalar) ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Neyron tarjima (NMT), poetika, deformatsiya, leksik-semantik siljish, konnotatsiya, adekvatlik, qiyosiy tahlil.

Abstract: This article provides a comparative-critical analysis of the capabilities of modern artificial intelligence and Neural Machine Translation (NMT) systems in translating literary texts, particularly poetic works, along with the types of deformations they permit. The inevitable distortions (deformations) occurring in machine translation regarding the emotional-aesthetic layer, metaphorical system, and rhythmic-melodic structure of a literary text are thoroughly illuminated from a scientific and theoretical perspective.
Keywords: Neural Machine Translation (NMT), poetics, deformation, lexical-semantic shift, connotation, adequacy, comparative analysis.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-критический анализ возможностей современных систем искусственного интеллекта и нейшинного перевода (Neural Machine Translation — NMT) в переводе художественной литературы, в частности поэтических текстов, а также видов допускаемых ими деформаций. Научно-теоретически освещены неизбежные искажения (деформации), возникающие при машинном переводе эмоционально-эстетического пласта, метафорической системы и ритмико-мелодической структуры художественного текста.
Ключевые слова: Нейшинный перевод (NMT), поэтика, деформация, лексико-семантический сдвиг, коннотация, адекватность, сравнительный анализ.

KIRISH

Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarjimashunoslik faniga ham ulkan o‘zgarishlar olib kirdi. Google Translate, DeepL, ChatGPT kabi neyron tarmoqqa asoslangan tarjima vositalari (NMT) ilmiy, texnik va ommabop matnlarni o‘girishda yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Biroq, bu texnologiyalarni badiiy matnlarga, xususan, poetika olamiga tatbiq etganda jiddiy muammolar yuzaga keladi.

She'riy yoki badiiy nasriy asar shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, balki chuqur milliy-madaniy kod, metaforik qatlam va emotsional-estetik tizimdir. Neyron tarmoqlar statistik

ma'lumotlar va ehtimolliklarga tayanib ishlagani sababli, badiiy asar ruhini to‘laqonli ochib berolmaydi va natijada matnda **deformatsiya** (shakliy va mazmuniy buzilishlar) yuzaga keladi. Ushbu maqolaning maqsadi — neyron tarjimada uchraydigan poetik deformatsiya turlarini tasniflash va ularni qiyosiy-kritik tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda neyron tarjima (Neural Machine Translation — NMT) texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarjimashunoslik yo‘nalishida yangi bosqichni boshlab berganini bemalol e'tirof eta olamiz. Shu bilan birga, mashina tarjimasining badiiy adabiyotga tatbiqi ko‘plab ilmiy munozaralarga va ilmiy izlanishlar va tuzatishlarga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy tarjimashunoslikda masalan, M. Baker tarjimashunoslikda korpus lingvistikasi, pragmatik ekvivalentlik, tarjima va mafkura masalalari[1] va M. Tymoczko tadqiqotlarida madaniy kontekstda tarjima, postkolonial tarjimashunoslik, tarjima va ijodkorlik hamda tarjima jarayonining kognitiv/neyrobiologik asoslari tahlil qilinadi[2], shuningdek badiiy tarjima shunchaki kodlarni almashtirish emas, balki madaniy-estetik qayta yaratish jarayoni ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotchilar A. Way Mashina tarjimasi (Machine Translation), neyron tarmoqlar va ularning cheklovlari, kompyuter yordamidagi adabiy tarjima (Computer-Assisted Literary Translation) yo‘nalishida, F. Hutchins esa Mashina tarjimasi tarixi, ilk avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarining evolyutsiyasi va nazariyotini to‘liq tahlil qilib, ochib berganlar. Shu barobarida NMT tizimlari (Google Translate, DeepL, ChatGPT) katta hajmli ma'lumotlarni qayta ishlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatishini, ammo adabiy matnlardagi yashirin ma'nolar, konnotatsiya va idiomalar bilan ishlashda ojiz qolishini qayd etadilar.

O‘zbekiston va MDH davlatlari tarjimashunosligida kompyuter tarjimasining lingvistik buzilishlari (deformatsiyalari) yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mashina tarjimasining, asosan, so‘zma-so‘z (literal) tarjima qilish tendensiyasi ustunlik qiladi. Misol uchun, G‘ulom Salomov o‘zining “Tarjimanazariyasi asoslari” orqali O‘zbek tarjimashunosligi maktabining asosiy poydevori bo‘ldi, badiiy tarjimada so‘zma-so‘z (literal) tarjimaning yo‘l qo‘yib bo‘lmas xatoliklari, milliy ruh va adekvatlik masalalarini nazariy jihatdan isbotlab berdi.[3]

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar neyron tarjimaning texnik yoki umumiy lingvistik xatolariga bag‘ishlangan. Biroq, poetik matnlardagi ritmik, metaforik va konnotativ deformatsiyalarning qiyosiy-kritik tahlili yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda neyron tarjima va poetik tarjima o‘rtasidagi tafovutlar hamda deformatsiya turlarini ochib berish uchun kompleks va qiyosiy-tahliliy yondashuv tanlandi.

---

[1] **Baker, M.** (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation* (3rd ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315619586

[2] **Tymoczko. M.** (2014). *Translation, Ideology, and Creativity*. Routledge. (Asl nashr: 2007)

[3] Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 232 b.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Qiyosiy-kritik tahlil: Asl nusxadagi poetik parcha, uning neyron tarmoq (NMT) orqali olingan mashina tarjimasidagi varianti va professional (adekvat) badiiy tarjimasi o‘zaro yonma-yon qo‘yilib, qiyosiy o‘rganildi.

Tavsifiy metod: Neyron tarjimada yuzaga keladigan leksik-semantik, strukturaviy-ritmik va pragmatik deformatsiya turlarini tasniflash va tavsiflashda qo‘llanildi.

Empirik tanlanma: Tadqiqot uchun ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik hamda vaznli poetik parchalar tanlab olindi (jami 3 ta asosiy eksperimental matn namunasiga tayanildi).

Tadqiqot quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Ma'lumot yig‘ish va modellashtirish: Tanlangan poetik matnlar sun'iy intellekt tarjima tizimlariga kiritilib, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima natijalari qayd etildi.

2. Deformatsiya turlarini identifikatsiya qilish: Mashina tarjimasidagi xatolar uch mezon asosida tahlil qilindi:

Leksik-semantik buzilishlar (metafora va iboralarning literal tarjima qilinishi).

Strukturaviy-ritmik buzilishlar (she'riy vazn, pauza va qofiyaning yo‘qolishi).

Pragmatik-konnotativ buzilishlar (madaniy kontekst va emotsional bo‘yoqdorlikning neytrallashuvi).

3. Kritik baholash va sintez: NMT natijalari professional badiiy tarjimalar bilan qiyoslanib, sun'iy intellektning badiiy tarjimadagi imkoniyatlari va chegaralari ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Neyron tarjimada badiiy matn duch keladigan deformatsiyalarni shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1. **Leksik-semantik deformatsiya:** Metafora, ibora va jonlantirishlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri (literal) tarjima qilish natijasida obrazlilikning yo‘qolishi.

2. **Strukturaviy-ritmik deformatsiya:** She'riy matndagi vazn, qofiya, turoq va pauzalarning buzilishi, ya'ni she'rning nasriylashib ketishi.

3. **Pragmatik va konnotativ deformatsiya:** Muallif uslubi, emotsional bo‘yoqdorlik va madaniy kontekstning sun’iy intellekt tomonidan "tekislab" (neytrallashtirib) yuborilishi.

Asl nusxa (Original): O‘zbek tilidagi poetik parcha.

Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang,
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am![4]

Neyron tarjima (NMT): Sun'iy intellekt (masalan, standart mashina tarjimasi) bergan variant.

Tell me, what is your purpose,
Why tear my chest apart, o melody?
Why do you need my tears,
Why so much grief, o rubob, you need!

[4] https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/abdulla-oripov/?lng=lat

Badiiy/Adekvat tarjima: Professional tarjimon yondashuvi.

Could you tell me please, what your purpose is?

Why do you hurt my heart, oh you tune?

Tell me please, why did you need my tears?

Why, Rubab, do you need so pain and doom!

Yuqoridagi tarjimalardan shuni anglaymizki, sun'iy intellect she'rni so'zlariga qarab, ya'ni so'zma-so'z tarjima qilib qo'ydi. Inson tarjimasida esa she'rga hissiyot qo'shilganligi va o'ziga xos yondashuv bilan tarjima qilinganligi guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari she'rniy shakli jihatlariga – qofiya, turoq va vazniga tarjimashunos olim jiddiy e'tibor qaratadi, she'rning o'zga tilda ham ham nafaqat go'zal ma'noga ega ekanligini, balki o'qilish ohangi ham huddi shunday go'zal ekanligini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Neyron tarmoq tarjimasida esa bu shakllar inobatga olinmaydi, shunchaki matn u tildan bu tilga o'zgartiriladi xolos.

Bunday tahlilni nafaqat she'rlarda, balki nasriy asarlarda ham qilish mumkin va bu orqali tarjimon mahorati va sun'iy intellect tarjimalaridagi farqlar, yutuq va kamchiliklarini ham anglay olamiz.

Asl nusxa (Original): O'zbek tilidagi matn.

Turobjon qizardi. U bir zamon betob o'rtog'ini yo'qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo'lsa kerak, sigirning oxurida ko'rib shunday xijolat bo'lgan edi.[5]

Neyron tarjima (NMT): Sun'iy intellekt (masalan, standart mashina tarjimasi) bergan variant.

Turobjon turned red. He had been so embarrassed once before when he saw the watermelon he had taken to visit his sick friend in a cow's manger, probably because it turned out to be tasteless.

Badiiy/Adekvat tarjima: Professional tarjimon yondashuvi.

Turobjon got red in the face. He was in a state of confusion. Once he had felt such confusion when he'd brought a watermelon to his friend's house. Later he saw the watermelon in the crib of that family's cow. Maybe the watermelon had been tasteless.[6]

Yuqoridagi tahlildan oradagi farqni yaqqol sezishimiz mumkin. Professional tarjimon tarjimaga ijodkor singari hissiyot qo'shadi. Masalan, Turobjonning ayni vaqtda holati "emberessed" emas "in a state of confusion" holatida ekanligi, ya'ni u ayb ish qilganida uyalib qizarmayapti, oldin qilgan ishining hijolatli holatini ayni damda yana his qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni anglaymizki, neyron tarjima tizimlari matnning lug'aviy (infomatsion) mazmunini yetkazishda kuchli bo'lsa-da, poetik matndagi metafora, konnotatsiya va ritmik yaxlitlikni saqlashda ojizlik qiladi. Ya'ni NMT da yuzaga keladigan deformatsiyalar asosan literal tarjima (so'zma-so'zlik), madaniy kodlarning e'tibordan chetda qolishi hamda she'riy vaznning buzilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun kelgusida badiiy tarjimalarda sun'iy intellektdan mutlaq mustaqil ravishda foydalanish imkonsiz bo'lib, "Post-

[5] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-anor-hikoya
[6] https://ziyouz.uz/en/prose/139-abdulla-kahhor-pomegranate-story

editing" ya’ni sun'iy intellekt natijasini ijodiy qayta ishlash va tahrirlash yondashuvi eng maqbul yo‘l ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge. 2018 y
2. Munday, J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. Routledge. 2016 y
3. Qahhor, A. Anor (hikoya). Ziyouz elektron kutubxonasi. [https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-anor-hikoya]
4. Kahhar, A. Pomegranate (hikoyaning inglizcha tarjimasi). Ziyouz Electronic Library. [https://ziyouz.uz/en/prose/139-abdulla-kahhor-pomegranate-story]
5. Oripov, A. Abdulla Oripov ijodi va she'rlari. Ziyouz elektron kutubxonasi. [https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/abdulla-oripov/?lng=lat]
6. Salomov, G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 232 b.
7. Tymoczko, M. Translation, Ideology, and Creativity. Routledge. 2014 y
8. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge. 2008 y
9. Комиссаров, В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва: Высшая школа. 1990 г